


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIVVAO'RTAMAXSUSTA'LIMVAZIRLIGI

TOSHKENT SHAHRIDAGI TURIN POLITEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI AKADEMIK LITSEY



“Ma’naviyat asoslari” fani
Ishchi o’quv dasturi

1-kurs o’quvchilari uchun Oliyvao’rtamaxsus, kasb-
hunarta’limiyo’nalishlaribo’yichamuvofiqlashtiruvchikengashining 2018 yil
18 avgustdagi (2018) sonli majlis bayonnomasi,
O’zbekiston Respublikasi Oliyvao’rtamaxsusta’limvazirligining 2018 yil 25
avgustdagi (25) - 444.
sonli buyrug’i bilan tasdiqlangana’munaviyo’quvdasturiasosida ishlab chiqilgan



TURIN POLYTECHNIC UNIVERSITY IN TASHKENT

ACADEMIC
LYCEUM

Tayyorlovyo’nalishi: Aniqfanlar
Ta’limkodi: 100

Toshkent – 2019

Ishchi dastur O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar tayyorlov yo‘nalishlari bo‘yicha Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2018 yil 18 avgustdagi № 4-son majlis bayoni bilan maqullangan va Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirining 2018 yil 25 avgustdagi 744-son buyrug‘I bilan tasdiqlangan., namunaviy o‘quv dasturi asosida ishlab chiqildi. “Ma’naviyat asoslari” fanining ishchi o‘quv dasturi ta‘lim muassasasining 2018 yil 28 avgustdagi pedagogik kengashida muhokama qilindi, tasdiqlashga va o‘quv jarayoniga tadbiiq etishga qaror qilindi. 1-sonli bayonnoma “Ma’naviyat asoslari” faniga ajratilgan soatlar miqdori:
O‘quvchining umumiy yuklamasi 34 soat, shu jumladan mashg‘ulot turlari bo‘yicha ajratilgan soatlar:

№	Mashg‘ulot turlari	Ajratilgan soat	Shu jumladan semestrlar bo‘yicha						
			I	II	III	IV	V	VI	
1	Auditoriya jami yuklamasi	34	34						
2	Nazariy mashg‘ulot	30	30						
3	Amaliy mashg‘ulot								
4	Seminar	4	4						
5	Laboratoriya mashg‘uloti								
6	Kurs ishi (loyihasi)								
7	Yakka tartibli mashg‘ulot								
8	O‘quvchining mustaqil ishi	12	12						

Tuzuvchi:

Karimov A.A.

TTPU huzuridagi akademik litsey
“Ma’naviyat asoslari” fani o‘qituvchisi

Taqrizchilar:

TTPU huzuridagi akademik litseyo‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari

Mundarija

“Ma’naviyat asoslari” o’quv fani (moduli) ning maqsad va vazifalari, o’zlashtirish natijasi	4
“Ma’naviyat asoslari” o’quv fani (moduli) ning o`quv mashg`ulotlari uchun dars soatlari taqsimoti jadvali	6
“Ma’naviyat asoslari” o’quv fani (moduli)ning mashg’ulot turlari bo’yicha mavzular rejasi va mazmuni	7
“Ma’naviyat asoslari” fan (modul) ning o’zlashtirish darajasini nazorati va baholash	13
O’quvchilarning darsdan tashqari mustaqil ishlari.....	14
Tavsiya etilgan adabiyotlar va saytlar ro’yxati.....	15

O'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida “Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” turkumiga kiruvchi fanlarni o'qitishning maqsadi:

o'quvchilarni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash, o'quvchilar qalbi va ongiga ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot g'oyasining mohiyatini singdirish, ularning ma'naviy dunyosini boyitish va mafkuraviy immunitetini, tayanch va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat.

“Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” turkumiga kiruvchi fanlarni o'qitishning vazifasi:

O'quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilishga o'rgatish, ularda faol fuqarolik nuqtai nazarini, milliy g'urur, bag'rikenglik va sog'lom e'tiqodni shakllantirishdan iborat.

O'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida “Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” turkumiga kiruvchi o'quv fanlari bo'yicha ta'lim oluvchilar tayyorgarligining zarur va yetarlicha darajasi hamda ta'lim muassasalari bitiruvchilariga nisbatan qo'yiladigan malaka talablari

1. Ma'naviy-axloqiy madaniyatlilik kompetensiyasi

A1

Odob-axloq (kiyinish, muomala, muloqot, jamoat joylarida o'zini tutish) madaniyatiga ega bo'ladi;

milliy va umuminsoniy qadriyatlarni angelaydi va hurmat qiladi.

A2

Oila, jamiyat, Vatan oldidagi burch hamda mas'uliyatni angelaydi va ularga rioya qiladi;

milliy va umuminsoniy qadriyatlarni, milliy-madaniy an'analar, urf-odatlar, marosimlarga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'ladi;

Vatan ravnaqi yo'lida jismoniy va intellektual imkoniyatlarini safarbar eta oladi;

milliy va diniy munosabatlarda bag'rikenglikni o'zida namoyon eta oladi;

muammolarni vazminlik va tinch yo'l bilan hal etadi;

hissiyotlarga berilmaydi, har qanday jarayonda aql bilan ish yuritishga harakat qiladi;

jamoatchilik ishlarida faol bo'ladi.

B1

Burch hamda mas'uliyat hissini anglaydi va ularga rioya qiladi;

milliy va umuminsoniy qadriyatlarni, milliy o'zlikni anglaydi va unga munosib bo'lishga harakat qiladi;

o'z xatti-harakatlarini tanqidiy baholay oladi va o'zgalar tanqidini to'g'ri qabul qiladi;

millatlararo hamjihatlik va diniy bag'rikenglikni o'zida namoyon eta oladi;

shaxsiy va ijtimoiy munosabatlarda sog'lom-ma'naviy muhitni shakllantiradi;

nizoli vaziyatlarda o'zini o'zi idora qila oladi;

ma'naviy-axloqiy fazilatlarni targ'ib qila oladi.

2. Mafkuraviy immunitetga ega bo'lish kompetensiyasi

A1

yaxshi va yomon xatti-harakatlarni farqlaydi, ularga fikrini bayon eta oladi;

yon-atrofida bo'layotgan voqea-hodisalarga munosabat bildiradi;

ilmlilik insonning yuksak ziynati ekanini anglay boshlaydi.

A2

O'zbekistondagi demokratik islohotlar va dunyoda kechayotgan ma'naviy-mafkuraviy jarayonlarga munosabat bildiradi;

ma'naviy tahdidlarni anglaydi va baholay oladi;

fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish tamoyilini o'zida namoyon eta oladi;

axborot va media madaniyatga ega.

B1

turli ma'naviy tahdidlar va mafkuraviy xurujlarni anglaydi va to'g'ri baholay oladi, munosabat bildiradi;

mamlakatimizdagi ma'naviy-mafkuraviy jarayonlarda ishtirok etish va baholashda faol fuqarolik pozitsiyaga ega;

tinchlik va osoyishtalikning qadriga yetadi va ta'minlanishiga hissa qo'sha oladi;

fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurasha oladi.

MAVZULAR BO'YICHA DARS SOATLARINING TAHMINIY TAQSIMOTI

№	Fan bo'limlari va mavzular	Umumiy yuklama, soat					
		Dars turi bo'yicha soatlar taqsimoti					
		Hammasi	Jami	Nazariy (ma'ruza)	Seminar	Nazorat ishi	Mustaqil ish
1	1-mavzu: Ma'naviyat va uning jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni	2	2	2			
2	2-mavzu: Sharq va G'arb xalqlari ma'naviyatining shakllanishi jarayonlari	4	4	4			
3	3-mavzu: Amir Temur va temuriylar sulolasi davrida ma'naviyat	4	2	2			2
4	4-mavzu: Vatan himoyachisi ma'naviyatini shakllantiradigan asosiy mezonlar	4	2	2			2
5	5-mavzu: Harbiy xizmatchi ma'naviyatiga zid illatlar	4	2	2			2
6	6-mavzu: Oila – ma'naviyat beshigidir	2	2	2			
7	7-mavzu: Barkamol shaxsni mafkuraviy tarbiyalash masalalari	2	2	2			
8	8-mavzu: O'zbek xalqining milliy, ma'naviy tiklanishi va rivojlanishida Birinchi Prezident Islom Karimovning xizmatlari	4	2	2			2
9	9-mavzu: Milliy g'oya milliy o'zlikni anglashning omili	2	2	2			
10	10-mavzu: Jadidchilik g'oyalari va ularning xalq ma'naviyatida tutgan o'rni	2	2	2			
11	11-mavzu: Diniy bag'rikenglik va vijdon erkinligi – umumbashariy qadriyat	4	2	2			2
12	11-mavzu: O'zbekiston taraqqiyotiga tahdid soluvchi diniy-siyosiy harakatlar	2	2	2			
13	12-mavzu: Globallashuv jarayonida yoshlar mafkuraviy immunitetni shakllantirish vazifalari	2	2	2			
14	13-mavzu: San'at va ma'naviyat ravnaqi	2	2	2			
15	14-mavzu: Siyosiy madaniyat. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning g'oyaviy-ma'naviy omillari	2	2	2			
16	15-mavzu: O'zbek xalqiga tinchlik va omonlik kerak	4	2	2			2
	Jami:	46	34	30			12

Ma'naviyat asoslari o'quv fanining mashg'ulot turlari bo'yicha mavzular rejasi va mazmuni

I semestr

Mavzular t/r	O'quv fani (moduli) mavzusi va mashg'ulot turlari bo'yicha mavzular mazmuni	Ajratilgan soat	O'qitish vositalari			Nazorat usuli	Tavsiya etilgan adabiyot
			Didaktik material va ko'rgazmali qurollar	AKT va o'qitishning texnik vositalari	Texnologik jihozlar, stendlar, maketlar, asboblari, materiallar va b.		
1.	2.	3.	4.	5.	6.	7.	8.
1.	<p>Mavzu: Ma'naviyat va uning jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni <i>Nazariy mashg'ulot mazmuni:</i> Ma'naviyatning ma'no-mazmuni, hayotdagi o'rni va ahamiyati haqida turli fikr va ta'riflar. Ma'naviyat va ma'rifat uyg'unligi. Ma'naviyatning predmeti, maqsadi, jamiyat ma'naviy taraqqiyotining asosi ekanligi. Ma'naviyatning asosiy kategoriyalari, uning rivojlanish qonuniyatlari. Davlat siyosatida ma'naviyatni yuksaltirishning ustuvor sohaga ko'tarilishi.</p> <p>Ma'naviy meros – ma'naviyat rivojlanishining asosi ekanligi. Madaniy meros. Ma'naviyatning jamiyat va inson hayotida tutgan o'rni. Ma'naviy qadriyatlar va ularning inson kamolotidagi ahamiyati. Qadriyat tushunchasi. Ma'naviy qadriyatlarning yoshlar tarbiyasidagi, milliy g'urur va milliy o'zlikni anglashdagi ahamiyati. Diniy qadriyatlarning inson ma'naviy kamolotida tutgan o'rni.</p>	2	Tarqatm amateriallar jadval, xarita, kross-vord, filvord, tayanch atamalar.	Slayd, video, multimediyali tasvirlar.	Kompyuter, proektor.	Savol-javob.	1-57
2.	<p>Mavzu: Sharq va G'arb xalqlari ma'naviyatining shakllanishi jarayonlari <i>Nazariy mashg'ulot mazmuni:</i> Qadimgi bitiktoshlar va yozma manbalarda bayon etilgan xalqlarning madaniy hayoti. Xalq og'zaki ijodiyoti va yozma adabiy meros namunalari. Milliy ma'naviy qadriyatlarning mumtoz ko'rinishlari. Vatan ozodligi, erksevarlik, yurtparvarlik, vatanparvarlik - ajdodlarimizning ma'naviy fazilatlarini.</p> <p>Jahon ma'naviyati va ma'rifati rivojiga Evropa hamda Markaziy Osiyo xalqlarining qo'shgan hissasi. Madaniy–ma'naviy taraqqiyotining asosiy bosqichlari. “Avesto” – xalqimiz diniy, axloqiy, ilmiy, adabiy qarashlarini ifoda etadigan bebaho ma'naviy obida. Moniylik va mazdakizm ta'limotida</p>	4	Tarqatm amateriallar jadval, xarita, kross-vord, filvord, tayanch atamalar.	Slayd, video, multimediyali tasvirlar.	Kompyuter, proektor.	Savol-javob.	1-57

	yaxshilik va yomonlik, yorug'lik va zulmat o'rtasidagi g'oyalari. Milliy bayram – Navro'z milliy qiyofimiz, urf – odatlarimizning betakror ifodasi. Ilk Sharq uyg'onish davri ma'naviyati.						
3.	Mavzu: Amir Temur va Temuriylar sulolasi davrida ma'naviyat <u>Nazariy mashg'ulot mazmuni:</u> Amir Temur – Sohibqiron sarkarda. Temuriylar davrida ma'naviyat va ma'rifat rivoji. “Temur tuzuklari”da harbiylar ma'naviy qiyofasiga qo'ylikilgan talablar. Mirzo Ulug'bek donishmand hukmdor, ilm – fan, ma'rifat homiysi, buyuk olim va munajjim. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiyning o'zbek xalqi ma'naviy dunyosi shakllanishidagi buyuk xizmatlari.	2	Tarqatm amateriallar jadval, xarita, kross-vord, filvord, tayanch atamalar.	Slayd, video, multimediyali tasvirlar.	Kompyuter, proektor.	Savol-javob.	1-57
4.	Mavzu: Vatan himoyachisi ma'naviyatini shakllantiradigan asosiy mezonlar <u>Nazariy mashg'ulot mazmuni:</u> Harbiylar ma'naviyati mezonlari va fazilatlar haqida tushuncha. Vatan – sajdagoh kabi muqaddas. Vatanparvarlik – yetuk ma'naviylik mezoni. O'z Vatani va millatiga sadoqatli bo'lish – yuksak ma'naviylik mezoni. Millatparvarlik va mustaqillik tafakkuri ma'naviyatni mustahkamlovchi omil ekanligi.	2	Tarqatm amateriallar jadval, xarita, kross-vord, filvord, tayanch atamalar.	Slayd, video, multimediyali tasvirlar.	Kompyuter, proektor.	Savol-javob.	1-57
5.	Mavzu: Harbiy xizmatchi ma'naviyatiga zid illatlar <u>Nazariy mashg'ulot mazmuni:</u> Ma'naviyatga zid illatlar tushunchasi. Xoinlik. Vatanfurushtlik. Yolg'on. G'iybat. Haqorat. Tuhmat. Qo'rqqoqlik. Hudbinlik. Ikkiyuzlamachilik. G'azab. Ta'ma. Zulm. Ma'naviyatga zid illatlarning kelib chiqish sabablari. Korruptsiya va poraxo'rlik. Ma'naviyatga zid illatlarning salbiy oqibatlar. Harbiy xizmatchilar tomonidan sodir etilayotgan axloqsizlik holatlari. Harbiy tizimida axloqsizlik holatlariga qarshi chora-tadbirlar.	2	Tarqatm amateriallar jadval, xarita, kross-vord, filvord, tayanch atamalar.	Slayd, video, multimediyali tasvirlar.	Kompyuter, proektor.	Savol-javob.	1-57
6.	Mavzu: Oila – ma'naviyat beshigidir <u>Nazariy mashg'ulot mazmuni:</u> Oila - shaxs tarbiyasi va kamolotining ijtimoiy-madaniy muhiti. O'z-o'zini tarbiyalash va o'z-o'zini kamol toptirishning psixologik-pedagogik asoslari. Shaxs ma'naviyatini shakllantirishda ota-ona va oila mas'uliyati. Oila – jamiyatning negizi. O'zbek oilasida bugungi kunda yaxshilik va yorug'lik, bolalarga mehr, kattalarga hurmat, yaqinlarga va boshqalarning qayg'usiga hamdardlik mujassamlashganligi. Ma'naviyat insonga ona suti, ota namunasi, ajdodlar o'giti bilan singishi. Xalq jamiyatdagi barqarorlikning oila va mahalla kabi ishonchli an'anaviy vositalari. Oila va mahalla ruhiyatimiz mustahkamligining tayanchi.	2	Tarqatm amateriallar jadval, xarita, kross-vord, filvord, tayanch atamalar.	Slayd, video, multimediyali tasvirlar.	Kompyuter, proektor.	Savol-javob.	1-57

7.	<p>Mavzu: Barkamol shaxsni mafkuraviy tarbiyalash masalalari <u>Nazariy mashg'ulot mazmuni:</u> G'oyaviy ta'lim-tarbiya va targ'ibot-tashviqot ishlariga kompleks-sistemali yondashish tamoyillari. «Mafkuraviy tarbiya» tushunchasi, uning mazmuni va namoyon bo'lish xususiyatlari. «Mafkuraviy ta'sir», «mafkuraviy tarbiya» va «mafkuraviy profilaktika» tushunchalarining o'zaro aloqadorligi. «Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch» asarida ma'naviy tarbiya, ezgu g'oyalarga ishonch va sadoqatni tarbiyalash masalalari. Mafkuraviy tarbiya tizimi, uning sub'ekti va ob'ekti. Mafkuraviy tarbiyaning yo'nalishlari va ijtimoiy funksiyalari. G'oya va mafkuralar sohasidagi plyuralizm va tolerantlikni tarbiyalash.</p>	2	Tarqatm amateriallar jadval, xarita, kross-vord, filvord, tayanch atamalar.	Slayd, video, multimediyali tasvirlar.	Kompyuter, proektor.	Savol-javob.	1-57
8.	<p>Mavzu: O'zbek xalqining milliy, ma'naviy tiklanishi va rivojlanishida Birinchi Prezident Islom Karimovning xizmatlari <u>Nazariy mashg'ulot mazmuni:</u> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Abdug'anievich Karimovning tarjimai holi. Buyuk xizmatlar. Sharh va tafsilotlar. Islom Karimov asarlarida ma'naviy va moddiy hayotning uyg'unligi masalalari. "Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch", "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida", "Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir" asarlarining ma'naviy metodologik asosi.</p>	2	Tarqatm amateriallar jadval, xarita, kross-vord, filvord, tayanch atamalar.	Slayd, video, multimediyali tasvirlar.	Kompyuter, proektor.	Savol-javob.	1-57
9.	<p>Mavzu: Milliy g'oya milliy o'zlikni anglashning omili <u>Nazariy mashg'ulot mazmuni:</u> Ijtimoiy taraqqiyot va tarixiy jarayonlarning milliy g'oyalar shakllanishi hamda amal qilishiga ta'siri. Milliy g'oya xalqning tarixiy taraqqiyoti asosi. Milliy g'oya o'z-o'zini anglashning mahsuli. Milliy g'oya mohiyatida xalq manfaatining ifodalanishi. Milliy g'oya va mafkurani rivojlantirishning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy, huquqiy omillari. G'oya va mafkuralarning ijtimoiy taraqqiyotdagi roli. Ijtimoiy-siyosiy tuzumlar o'zgarishida g'oyaviy-mafkuraviy qarashlarning ahamiyati.</p>	1	Tarqatm amateriallar jadval, xarita, kross-vord, filvord, tayanch atamalar.	Slayd, video, multimediyali tasvirlar.	Kompyuter, proektor.	Savol-javob.	1-57
10.	<p>Mavzu: Jadidchilik g'oyalari va ularning xalq ma'naviyatida tutgan o'rni <u>Nazariy mashg'ulot mazmuni:</u> Jadidchilarning ma'rifatparvarlik harakatlari va uning xalq ma'naviyatini ko'tarishda tutgan o'rni. Yangi usul maktablari. Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ishoqxon Ibrat, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon va boshqalarning milliy ma'naviyatning rivojlanishidagi o'rni. Mustamlakachilik va qaramlik sharoitida o'zbek xalqining ma'naviyatiga tahdidi. O'z milliy tarixini, tilini, qadriyatlarini saqlab qolish va rivojlantirish har bir millat va ma'naviyati yuksak shaxsning insoniy burchi ekanligi.</p>	2	Tarqatm amateriallar jadval, xarita, kross-vord, filvord, tayanch atamalar.	Slayd, video, multimediyali tasvirlar.	Kompyuter, proektor.	Savol-javob.	1-57
11.	<p>Mavzu: Diniy bag'rikenglik va vijdon erkinligi – umumbashariy qadriyat <u>Seminar mashg'ulot mazmuni:</u> «O'zbekiston – yagona Vatan» g'oyasi barqarorlikni ta'minlashning nazariy asosi. O'zbekistonda milliy madaniy markazlarning tashkil qilinishi millatlararo barqarorlikni ta'minlash vositasi. Madaniy muloqot ko'p millatli aholi orasidagi barqarorlik omili. Til madaniy</p>	2	Tarqatm amateriallar jadval, xarita, kross-vord, filvord, tayanch atamalar.	Slayd, video, multimediyali tasvirlar.	Kompyuter, proektor.	Savol-javob.	1-57

	muloqot va barqarorlikning muhim vositasi. O'zbekistonda rasmiy tan olingan diniy konfessiyalar faoliyatining millatlararo totuvlikni ta'minlashdagi roli. 2007 yilda "Toshkent - islom madaniyati poytaxti" deb e'lon qilinishining tarixiy ahamiyati. Toshkent Islom universiteti va Toshkent Islom institutining aholi ongida dinga munosabatni shakllantirishdagi roli.						
12.	Mavzu: O'zbekiston taraqqiyotiga tahdid soluvchi diniy-siyosiy harakatlar. <u>Nazariy mashg'ulot mazmuni:</u> Diniy fundamentalizm va ekstremizm tushunchalari: mohiyati va mazmuni. Terrorizmga qarshi kurashda ma'rifiy islomning roli. Diniy ekstremizmga qarshi kurashishda yoshlarga "Jaholatga qarshi ma'rifat" tamoyilini singdirishning ahamiyati. Missionerlik va prozelitizm. Vahhobiylik harakatining kelib chiqishi va Markaziy Osiyoda tarqalishi. XX asrdagi islohotchilik harakatlari. Panislomizm, panarabizm, panturkizm tushunchalari. Nurchilik harakatlari, maqsadlari. Akromiylik harakatlari va ularning ayanchli oqibatlari. Radikal diniy oqimlar. Fanatizmning salbiy oqibatlari. Sobiq Ittifoqdan keyingi makonda diniy omilning faollashuvi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalar tuzishning taqiqlanishi.	2	Tarqatm amateriallar jadval, xarita, kross-vord, filvord, tayanch atamalar.	Slayd, video, multimediyali tasvirlar.	Kompyuter, proektor.	Savol-javob.	1-57
13.	Mavzu: Globallashuv jarayonida yoshlar mafkuraviy immunitetni shakllantirish vazifalari <u>Nazariy mashg'ulot mazmuni:</u> Dunyoning mafkuraviy manzarasi. Globallashuvning ijobiy va salbiy jihatlari. Mafkuraviy immunitetni shakllantirish masalalari. «Ommaviy madaniyat»ning oqibatlariga nisbatan immunitetni shakllantirishning zaruriyati. Mafkuraviy poligonlarning yadro poligonlaridan xavflilik sabablari. Mafkuraviy poligon va mafkuraviy profilaktikaning ijtimoiy siyosiy zaruriyati. Mafkuraviy immunitetni shakllantirish omillari.	2	Tarqatm amateriallar jadval, xarita, kross-vord, filvord, tayanch atamalar.	Slayd, video, multimediyali tasvirlar.	Kompyuter, proektor.	Savol-javob.	1-57
14.	Mavzu: San'at va ma'naviyat ravnaqi <u>Nazariy mashg'ulot mazmuni:</u> Adabiyot va san'at – shaxs ma'naviyatini shakllantirish va rivojlantirishning muhim vositasi. Musiqa san'ati, radio va televidenieng yoshlar ma'naviy kamolotida tutgan o'rni va mas'uliyati. Milliy ma'naviyatimiz takomilida tasviriy san'at, monumental san'at, xalq amaliy san'ati vakillarining burchi va mas'uliyati. Hozirgi davrda "ommaviy madaniyat" niqobi ostida kirib kelayotgan ma'naviy tahdidlarning zararli oqibatlari.	2	Tarqatm amateriallar jadval, xarita, kross-vord, filvord, tayanch atamalar.	Slayd, video, multimediyali tasvirlar.	Kompyuter, proektor.	Savol-javob.	1-57
15.	Mavzu: Siyosiy madaniyat. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning g'oyaviy-ma'naviy omillari <u>Nazariy mashg'ulot mazmuni:</u> Ma'naviyat va siyosat. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning mazmun va mohiyati. Ma'naviyat, jamiyat va davlat faoliyatini siyosatda ifodalanishi. Siyosatda xalq umummanfaatlarning mujassam bo'lish zaruriyati. Ma'naviy tiklanish va yuksalishida davlat siyosatining o'rni.	2	Tarqatm amateriallar jadval, xarita, kross-vord, filvord, tayanch atamalar.	Slayd, video, multimediyali tasvirlar.	Kompyuter, proektor.	Savol-javob.	1-57

	Adolatli va adolatsiz siyosatning jamiyat ma'naviy hayotidagi oqibatlari. Siyosat va mafkuraning o'zaro aloqadorligi va farqi. Siyosatning mafkuralashish va mafkuraning siyosatlashtirish oqibatlari. Milliy g'oyada mentalitetning namoyon bo'lishi. Mentalitetning fikrlash uslubi va qadriyatlar bilan bog'liq elementlari. Milliy va umuminsoniy g'oyalarning individualligi va umumiyliigi, integratsiyasi va differentsiatsiyasi.						
16.	Mavzu: O'zbek xalqiga tinchlik va omonlik kerak <u>Nazariy mashg'ulot mazmuni:</u> O'zbekistonning xalqaro hamjamiyatga integratsiyalashuvi va siyosiy mavqei mustahkamlanishida millatlararo va dinlararo tolerantlikni mustahkamlash tajribalarining demokratik xarakteri va xalqaro ahamiyati. "Bu muqaddas Vatanda azizdir inson", "Buyuk va muqaddassan mustaqil Vatan" g'oyalarning ijtimoiy ma'naviy ahamiyati.	2	Tarqatm amateriallar jadval, xarita, kross-vord, filvord, tayanch atamalar.	Slayd, video, multimediyali tasvirlar.	Kompyuter, proektor.	Savol-javob.	1-57
35.	<u>Jami:</u>	34	Shundan: 34 soat darsni o'rganish uchun, 12 soat mustaqil ta'lim uchun.				

“Ma’naviyat asoslari” fan (modul) ning o’zlashtirish darajasini nazorati va baholash
Baholash mezonlari va ko’rsatkichlari

Ko’rsatkichlar	Baholar			
	5	4	3	2
Tayanch bilimlarni aniqlash: “_____” usulidagi faolliklari	Berilgan mavzu bo’yicha o’z bilimlarini eslaydi va xatosiz qayta tiklaydi	Berilgan mavzu bo’yicha o’z bilimlarini eslaydi va ayrim xatolar bilan qayta tiklaydi	Berilgan mavzu bo’yicha o’z bilimlarini qisman eslaydi va xatolar bilan qayta tiklaydi	Berilgan mavzu bo’yicha o’z bilimlarini eslamaydi va qayta tiklamaydi
Bilimlarni mustahkamlash: “_____” usulidagi faolliklari	Berilgan mavzu bo’yicha o’z bilimlarini eslaydi va xatosiz qayta tiklaydi, taqdimotni amalga oshiradi	Berilgan mavzu bo’yicha o’z bilimlarini eslaydi va ayrim xatolar bilan qayta tiklaydi taqdimotni amalga oshiradi	Berilgan mavzu bo’yicha o’z bilimlarini qisman eslaydi va xatolar bilan qayta tiklaydi taqdimotni amalga oshiradi	Berilgan mavzu bo’yicha o’z bilimlarini eslamaydi va qayta tiklamaydi taqdimotni amalga oshirmaydi
Jami:	5	4	3	2

O'QUVCHILARNING DARS DAN TASHQARI MUSTAQIL ISHLARI

«Ma'naviyat asoslari» o'quv predmeti bo'yicha o'quvchilar vaqtining anchagina qismi mustaqil ishlarni bajarishga to'g'ri keladi. Bunda ular qo'shimcha ravishda bilish va amaliy faoliyat tajribasini egallaydi. Bularning minimumi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- mavjud xilma-xil axborotlarni tanqidiy o'zlashtirib o'zining mustaqil fikriga ega bo'lish va uni ifodalash;

- nostandart, pedagogik jihatdan moslashmagan axborotlarni, masalan, Internetni ham o'z ichiga olgan zamonaviy kommunikatsiya vositalari yordamida turli manbalar ustidan ishlar: tevarak-atrofdagi yuz beradigan voqea va hodisalarni zamonaviy ijtimoiy bilish usullariga tayangan holda tahlil etish;

- real voqelik vaziyatlarini moddiylashtiradigan ta'limiy o'yinlarda va dolzarb ijtimoiy muammolar bo'yicha muhokama, munozaralarda ishtirok etish hamda o'z qarashlarini mantiqiy dalillash;

- o'quv predmetining tegishli qismlari bo'yicha kasbiy sohalariga bog'lagan holda referatlar tayyorlash va h.k.

ASOSIY ADABIYOTLAR:

1. DARSLIK V.QO'CHQOROV, Z.ZAMONOV, O.MAHMUDOV DARSLIK "MA'NAVIYAT ASOSLARI." 10-11 sinflar uchun qayta nashr etilgan – T - 2017 "Yangiyo'l Poligraf servis"
2. S.H.NOSIRXO'JAYEV, M.F.LAFASOV, M.Z.ZARIPOV "MA'NAVIYAT ASOSLARI." -T.: "O'ZBEKISTON", 2015
3. A.KARIMOV MA'NAVIYAT ASOSLARI FANIDAN MA'RUZALAR MATNI . - T.: 2018

QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR:

4. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: «O`zbekiston», 2015.
5. Sh.Mirziyoyev "Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz" T.: "O`zbekiston" 2017.
6. Sh.Mirziyoyev "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi" T.: "O`zbekiston" 2017.
7. Sh.Mirziyoyev "Erkin va farovon, demokratik O`zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" T.: "O`zbekiston" 2017.
8. Sh.Mirziyoyev " Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak." T.: "O`zbekiston" 2017.
9. Islom Karimov. «Bizdan ozod va obod Vatan qoladi» T.: «O`zbekiston» 1994.
10. Islom Karimov. «Milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura» 1-jild T.: «O`zbekiston» 1996.
11. Karimov I.A. Istiqlol yo`li: muammolar va rejalar. Asarlar, 1-jild, 1996.
12. Karimov I.A. BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasidagi ma'ruza. Asarlar, 2-jild., 47- bet.
13. Karimov I.A. O`zbekiston XXI asr bo`sa`asida: xavfsizlikka tahdid , barqarorlik shartlari va, taraqqiyot kafolatlari. T.: «O`zbekiston», 1997.
14. Karimov I.A. Barkamol avlod – O`zbekiston, taraqqiyotining poydevori. T.: «O`zbekiston», 1997.

15. Islom Karimov. «Bunyodkorlik yo`lidan» . 4-jild T.: «O`zbekiston» 1998.
16. Karimov I.A. “Ma’naviy yuksalish yo`lida.” T.: «O`zbekiston», 1998.
17. Karimov I.A. “Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q.” T.: «O`zbekiston», 1998.
18. Karimov I.A. Hushyorlikka da'vat. T.: «O`zbekiston», 1999.
19. Karimov. I. A. “ Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”.T. “Ma’naviyat” 2008.
20. Karimov I.A. “O`zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” T.: “O`zbekiston ” 2011.
21. Karimov I.A. “Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo`lida xizmat qilish - eng oily saodatdir” T. 2015
22. Ziyoev X. O`zbekiston mustaqilligi uchun kurashlarning tarixi. T.: 2001.
23. Abu Rayxon Beruniy. “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”. T., 1968 yil.
24. Yusuf Xos Hojib. «Qutadg`u bilig». T.: «Yulduzcha» 1990.
25. Alisher Navoiy. «Lison-ut-tayr» T.: G`.G`ulom nomidagi Nashriyot matbaa birlashmasi 1991.
26. Abdulla Avloniy. «Turkiy Guliston yoxud Axloq». T.: «O`qituvchi» 1992.
27. Kaykovus. «Qobusnoma». T.: «Meros» nashriyoti 1992.
28. Imom Buxoriy. “Hadis”. 4 jildlik. T., Qomuslar bosh tahririyati, 1992 yil.
29. Abu Nasr Forobiy. “Fozil odamlar shahri”. T., G`afur G`ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1993 yil.
30. Sa'diy. «Guliston». «Bo`ston». A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti 1993.
31. Husayn Voiz Koshifiy. «Futuvvati sultoniya». A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti T.: 1994.
32. Amir Temur. «Temur tuzuklari». Toshkent, G`afur G`ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1996 yil.
33. Mirzo Ulig`bek. “To`rt ulis tarixi”. T., 1996 yil.
34. Nizomulmulik. «Siyosatnoma» T.: «Adolat» 1997.
35. G`ulomov S. Usmonov Q. Mustaqillik O`zbekistonga nima berdi. T.: 2001.

36. Jondor Tulenov «Qadriyatlar falsafasi» T.: «O`zbekiston» 1998.
37. Najmiddin Komilov. «Islom ma'rifat dini». T.: «Ma'naviyat» 2000.
38. Narzulla Jo`raev «Mafkuraviy immunitet» T.: «Ma'naviyat» 2000.
39. Narzulla Jo`raev, Shodmonqul Azizov. «Ijtimoiyot asoslari» T.: «Ma'rifat-ma'dadkor» 2003.
40. «Komil inson haqidagi to`rt risola» T.: «Ma'naviyat» 1997.
41. «Ma'naviyat» yulduzlari. T., «Abdulla Qodiriy» nomidagi nashriyot, 1999 yil.
42. Ibrohimov A. va boshq. Vatan tuyg`usi. Toshkent, O`zbekiston: 1996.
43. Imom Termiziy. Sahihi Termiziy. Toshkent: Qomuslar bosh taxririya, 1993.
44. Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. Toshkent: O`zbekiston, 1996.
45. Komilov N. Tafakkur karvonlari. Toshkent: Ma'naviyat, 1999.
46. Mirzakalon Ismoilov. Inson odobi. Toshkent, 1989.
47. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. Toshkent, 1996.
48. Olim S. Milliy mafkura - xalq tayanadigan kuch. Toshkent, 2000.
49. Olim S. Demokratiya - fuqarolik jamiyati. Toshkent, 2001.
50. Ochilov S. Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari. Toshkent, 1997.
51. Po`latov X. O`zbek mafkurasi. Toshkent: O`zbekiston, 1993.
52. Tulenov J. Qadriyatlar falsafasi. Toshkent: O`qituvchi, 1998.
53. Saidov A. Mustaqillik qomusi. Toshkent: O`zbekiston, 1993.
54. Sulaymonova F. Sharhu G`arb . Toshkent: O`zbekiston, 1998
55. Xayrullaev M. Ma'naviyat yulduzlari. Toshkent, 1999.

- 56.Tojiboev A, Sindarova F. "Xorazm Ma'mun akademiyasi va uning dinyo ilm-fani, taraqqiyotidagi o`rni» o`quv kursini O`rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida o`rganish bo`yicha dastur va uslibiy qo`llanma. T.:2007.
- 57.Tojiboev A, Sindarova F, N, Jo`raeva. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch" nomli asarini o`rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimida o`rganish bo`yicha dastur va uslibiy qo`llanma. T.:2008.

INTERNET SAYTLARI:

58.Ziyonet.uz

59.Lex.uz

60.Norma.uz

61.Gov.uz

62.Referat.uz

63.Arxiv.uz

64.Turin.uz

65.Markaz.uz

66.Toshkent.uz